

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60911100-Xalq tabobati bakalavriat ta’lim yo‘nalishining
malaka talablari*

“Xalq tabobati” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari
ta’limi tajribasi bilan qurilgan. Ta’lim yo‘nalishining malaka talablari
takifligiga qarab, shuningdek, o‘sishga qarab, o‘sishni qurilishiga
ba’zilashiga qarab, shuningdek, o‘sishni qurilishiga qarab, shuningdek,
ta’limi tajribasi bilan qurilgan.

“Xalq tabobati” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari
ta’limi tajribasi bilan qurilgan. Ta’lim yo‘nalishining malaka talablari
takifligiga qarab, shuningdek, o‘sishga qarab, o‘sishni qurilishiga
ba’zilashiga qarab, shuningdek, o‘sishni qurilishiga qarab, shuningdek,

Toshkent-2023

1



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent tibbiyot akademiyasi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «et» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> bakalavriat ta'lim yo'nališining umumiyligi tavsifi.....	4
1.1	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining turlari.....	6
1.2.4.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrularining kasbiy vazifalari.....	6
2.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yilgan talablar.....	8
2.3.1.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	8
2.3.2.	60911100 - <i>Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	9
2.4.	Kvalifikatsiya.	10
	Biblografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. *60911100-Xalq tabobati* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60911100-Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. *60911100 - Xalq tabobati* ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.

Tibbiyat va farmasevtika oliy ta’limning ushbu malaka talablari **60911100-Xalq tabobati** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlash o‘quv reja va modul dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi barcha tibbiyat va farmasevtika oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yo‘tuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va modul dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va modul dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya va imtihon komissiyalari;
- tibbiyat va farmasevtika oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- tibbiyat va farmasevtika oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan abiturientlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. *60911100-Xalq tabobati* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. *60911100-Xalq tabobati* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.

60911100-Xalq tabobati – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan va sog‘liqni saqlash sohalariga tegishli yo‘nalish bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, tibbiy nufuzini oshirish, o‘tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yuqumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va

davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo‘yicha kompleks masalalarni echishni o‘z ichiga oladi.

1.2.2. 60911100- Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– sog‘liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, islohotlar, sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli qaror va farmonlar, buyruqlar, chora – tadbirlar, dasturlar, standartlar, innovatsion g‘oya va loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar, tezislar, me‘yoriy hujjatlar, ma’lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalar, simulatsion ta’lim texnologiyalar, simulator rabotlar va fantomlar, dori vositalar, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– Xalq tabobati sohasida qo‘llaniladigan turli diagnostik asbob-uskunalar;

– sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo‘yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari;

– innovasion va ilmiy-tadqiqot jarayoni.

60911100- Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

– sog‘liqni saqlashning birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;

– aholi salomatligini muhofaza qilish va Sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish;

– aholi orasida keng tarqalgan o‘tkir va surunkali kasalliklar bo‘yicha barcha turdagи profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;

– yuqumli kasalliklarni oldini olish va epidemiya, pandemiya sharoitida zarur bo‘lgan chora – tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– shoshilinch yordam ko‘lami bo‘yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish hamda amaliyotda qo‘llash;

– tibbiyot sohasida dolzarb bo‘lgan kasalliklar hamda muammolar bo‘yicha zamonaviy ma’lumot, bilimlarga ega bo‘lish va faoliyati davomida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam tanishib borish va qo‘llash;

– aholi orasida keng tarqalgan kasalliklar bo‘yicha zamonaviy tashxislash va davolash standartlarini maqsadga yo‘naltirilgan holda amaliyotda qo‘llash;

– dispanserizasiya va reabilitasiya choralarini talab qilinadigan holatlarda, ularni aholiga zarur bo‘lgan darajada qo‘llash chora-tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish;

– sog‘liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtrok etish;

– tibbiyot sohasida dolzarb bo‘lgan muammolar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion loyihalarni talab darajasida olib borishda ishtrok etish;

-aholini ijtimoiy muhofaza qilishga ma’sul bo‘lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish.

1.2.3. 60911100- Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashxislash va davolash;
- reabilitasiya va dispanser nazorati;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy - boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion.

1.2.4. 60911100- Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining vazifalari.

60911100 - Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi qo‘yidagi kasbiy vazifalarini bajarishga tayyor bo‘lishi lozim:

Tibbiy - profilaktik faoliyatida:

- aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish;
- aholi orasida kasalliklar rivojlanishiga sabab bo‘luvchi xavf omillarini aniqlash va bartaraf etish;
- aholining tibbiy nufuzini oshirish, ratsional ovqatlanish tamoyillarini hamda zararli odatlarni bartaraf etish borasida zarur chora – tadbirlarni amalga oshirish;
- sog‘lijni saqlash tizimida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg‘or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- tibbiy –profilaktik faoliyatida xalq tabobati usullarini qo‘llash.

Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:

- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida aniqlash;
- kasalxonagacha bo‘lgan tez yordam ko‘lамини aniqlash va tibbiy yordam ko‘rsatish;
- ko‘rsatmaga ko‘ra zarur mutaxassislarga va kasalxonaga yo‘borish.

Tashxislash va davolash faoliyatida:

- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy tibbiyot va xalq tabobati usullari orqali tashxislash;
- keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy xalq tabobati usullaridan foydalangan holda to‘g‘ri davolash;
- bemorlarni ko‘rsatmaga ko‘ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;
- o‘z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish.

Reabilitatsiya va dispanser nazorati faoliyatida:

- kasalliklar bo‘yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o‘tkazishga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarini, muddatlarini to‘g‘ri aniqlash;

– reabilitatsiya majmularida xalq tabobati usullarini to‘liq hajmda amalga oshirish;

– bemorlar o‘rtasida reabilitatsiya o‘tkazishda zamonaviy va xalq tabobati usullaridan foydalanish;

– dispanser nazorati guruhlarida umumiyligi amaliyoti shifokori bilan to‘g‘ri aniqlash va bosqichlarini o‘z vaqtida amalga oshirish.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatida:

– ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarini olish, olingan natijalarini tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilish;

– yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

– oila va alohida aholi guruhlari o‘rtasida inson salomatligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va xavf omillarini bartaraf qilish.

2. *60911100-Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar*

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilish, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallash, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olish, takomillashtirish va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish, insonning ma’naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo‘lish, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarda foydalana olish;

- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me‘yorlarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olish;

- o‘zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni tushunish va ularni tahlil qilish;

- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- ilmiy faoliyati natijalarini xis qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lish;

- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, uslublarni tasniflash, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;
- professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;
- tibbiy hujjatlarni yuritishga tayyorgalik;
- kasbiy muammolarni hal qilishda xalq tabobati usullarni qo‘llashni, dalillarga asoslangan usullarni tanlashni bilish;
- bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatishda dalillarga asoslangan zamonaviy protokollar va standartlar asosida yordam berish;
- tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi, o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarini bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlar, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Xalq tabobati shifokori

2.3.2. 60911100-Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	210
Tanlov fanlar	300	10
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60911100-Xalq tabobati ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6300	210	
1.01	O‘YT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1204	Falsafa	120	4	2
1.03	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.04	ORTXTT11206	O‘zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	180	6	1,2
1.05	OAN112312	Odam anatomiyasi	360	12	1,2,3
1.06	GS1204	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	120	4	2
1.07	TBUG1104	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	120	4	1
1.08	TK1104	Tibbiy kimyo	120	4	1
1.09	BK1304	Biologik kimyo	120	4	3
1.10	FZ12306	Normal fiziologiya	180	6	2,3
1.11	PAN1404	Patologik anatomiya	120	4	4
1.12	PFZ1404	Patologik fiziologiya	120	4	4
1.13	MB13407	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya. Parazitologiya	210	7	3,4
1.14	FRFG13406	Farmakologiya. Farmakognoziya	180	6	3,4
1.15	LTTF1104	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	1
1.16	JSSST1304	Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil etish	120	4	3
1.17	GTEK1203	Gigiyena. Tibbiy ekologiya	90	3	2
1.18	TAT1204	Tibbiyotda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.19	BF1104	Biofizika	120	4	1
1.20	IKP1503	Ichki kasalliklar propedevtikasi	90	3	5
1.21	IKFT16708	Ichki kasalliklar. Ftiziatriya	240	8	6,7
1.22	DJT14506	Davolovchi jismoniy tarbiya va an‘anaviy gimnastika usullari	180	6	4,5
1.23	FZ1504	Fizioterapiya	120	4	5
1.24	RB17806	Reabilitologiya	180	6	7,8
1.25	KFR1503	Klinik farmakologiya	90	3	5

1.26	AKTG17807	Asab kasalliklari. Tibbiy genetika	210	7	7,8
1.27	EN1603	Endokrinologiya	90	3	5
1.28	PNTPS1804	Psixiatriya, narkologiya. Tibbiy psixologiya.	120	4	8
1.29	YKSEP17806	Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya	180	6	7,8
1.30	DV1403	Dermatovenerologiya	90	3	4
1.31	XKUR15606	Xirurgik kasalliklar. Urologiya	180	6	5,6
1.32	ON1503	Onkologiya	90	3	5
1.33	OTOF1704	Otorinolaringologiya. Oftalmologiya	120	4	7
1.34	TROR1603	Travmatologiya va ortopediya	90	3	6
1.35	TTYo1803	Tez tibbiy yordam, shoshilinch holatlar	90	3	8
1.36	RS1806	Reproduktiv salomatlik	180	6	8
1.37	PD1603	Pediatriya	90	3	6
1.38	ISTQ1204	Ibn Sino tib qonunlari	120	4	2
1.39	DT1504	Dietologiya	120	4	5
1.40	VL1404	Valeologiya	120	4	4
1.41	MT1604	Manual terapiya	120	4	6
1.42	DM1704	Davolovchi massaj	120	4	7
1.43	RF16812	Refleksoterapiya	360	12	6,7,8
1.44	FT1605	Fitoterapiya	150	5	6
2.00	TF2	Tanlov fanlar	300	10	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	3,4,5,6
		<i>Jami</i>	6600	220	
	MM1-416	Malakaviy amaliyot	480	16	1-7
	BAKYDA404	Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<i>Jami</i>	600	20	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK:61:796/799

Guruh S 73

Oks 75.0

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi, Profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot usullari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Dalillarga asoslangan tibbiyot, tadqiqot usullari, analitik taddiqotlar, kogort, hodisa - nazorat, randomizasiya, nisbiy xavf, shanslar nisbati, sifat, sifatni oshirish tamoyillari, kontseptsiyalari, menejment, menejer, boshqaruv, etakchilik, tashkilot, motivasiya, normal anatomiya, patologik anatomiya, fizik tekshiruv usullari, kompyo'ter tomografiya, ultratovush tekshiruv usullari.

Reabilitatsiya, davolovchi jismoniy tarbiya, an'anaviy gimnastika usullari, fizioterapiya, kurortologiya, alternativ tibbiyoti, an'anaviy Sharq tibbiyoti, jismoniy reabilitatsiya, Readaptatsiya, adaptatsiya, patologik holatlar, to'qimalar biopotentsiali, sanatoriy va kurort, refleksoterapiya, massaj, fitoterapiya, sanitariya-gigiena tadbirlari, patologik reaksiya, yo'rak-qon tomir kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi, nerv tizimi kasalliklari, ginekologiya, xirurgiya, funksional sinamalar, elektroforez, fonoforez, akupunktura, akupressura, nutrisiologiya, Manual terapiya.

**Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar este'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi,
“Sog‘lijni saqlash” ta’lim sohasi bo‘yicha
muyofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,



A.K.Shadmanov

2023-yil «01» 08

M.O.

KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor Sh.Yakubov
2023-yil «08» 08
M.O.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni
saqlash vazirligi
Ilm-fan va ta’lim boshqarmasi

Boshliq O‘S.Ismailov
2023-yil «08» 08
M.O.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,
Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari
rektorlar rayosati raisi

Rektor B.T.Daminov
2023-yil «03» 08

Toshkent shahar sog‘lijni saqlash
bosh boshqarmasi

Boshliq A.V.Alimov
2023-yil «05» 08
M.O.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'naliishi
bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"24" 04 2023-yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar – Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.K.Shadmanov, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori B.T.Daminov, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i O'.S.Ismailov, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i A.V.Alimov birgalikda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'naliishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'li tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalar va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim siaftini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sun Qarorlari hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy xijjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malak talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent pediatriya tibbiyot
instituti rektori**

B.T.Daminov

**Sog'liqni saqlash vazirligi
Ilm-fan va ta'lim boshqarmasi boshlig'i**

O'.S.Ismailov

**Toshkent shahar Sog'liqni saqlash
bosh boshqarmasi boshlig'i**

A.V.Alimov

**Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori**

A.K.Shadmanov